



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2024 - yil 14 - fevral

133-8-0-Q/24

Surxondaryo viloyati hokimligi

Sherobod tumanida bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5, 36-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan, Sherobod tumani hokimining 2024-yil 31-yanvardagi 01-04/978-son xati hamda Sherobod tumani “Qishloqbozor” mahallasida yashovchi fuqaro Hasanova Malohat Bahodir qizining 2023-yil 20-dekabr kuni notarial idora tomonidan tasdiqlangan reyestr 202301933005342-son bilan qayd etilgan rozilik arizasini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Sherobod tumani “Qishloqbozor” mahallasida yashovchi fuqaro Hasanova Malohat Bahodir qiziga tegishli “Hakimobod” mahallasidan Sherobod tumani hokimining 2020-yil 15-sentabrdagi Q-1336-sonli qarori bilan “Obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish” uchun ajratilgan jami 0,20 gektar yer maydoni bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari hisoblanishini inobatga olib, davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsin.

2. Tuman hokimi (U.Alimov) ikki kun muddatda hokimlik zaxirasidagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari hisobiga olingan yer maydonlarini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasiga buyurtmanoma taqdim etsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (S.Shaymardanov):

Sherobod tumani hokimligi buyurtmasiga asosan bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hamda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish ishlarini amalga

oshirsin;

zaxiraga qaytarilgan yer maydonlarining tuman hokimligi hisobiga qayta ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlab, yer hisobotiga tegishli o'zgartirishlar kiritsin.

4. Surxondaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (J.Normo'minov) bo'sh turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish ishlari tuman mahalliy budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishini ta'minlasin.

5. Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi (A.Abduraximov) belgilangan tartibda tuman hokimligi zaxirasiga qaytarilgan jami 0,3526,5 gektar yer maydonining loyiha hujjatlarini tayyorlab, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida qayta "E-ijro auksion" elektron onlayn-auksion savdosiga qo'yilishini ta'minlasin.

6. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-sayti (surxondaryo.uz) da e'lon qilinsin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari A.Amirov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyat hokimi



U.B.Qosimov